

## POETIKA TUSHUNCHASI VA NASR TAHLILIDA UNING O‘RNI

Hasanboy MADOLIMOV

NamDU o‘qituvchisi

madolimovhasanboy@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677145>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada poetika tushunchasi va uning nasr tahlilidagi o‘rni yoritiladi. Unda poetikaning adabiyotshunoslikdagi mavqei, adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid va metodologiya bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, nasriy asarlardagi syujet va kompozitsiya, obrazlar tizimi, muallif hamda qahramon nutqi, zamon va makon munosabatlari, ramz, motiv va badiiy tafsilotlarning estetik vazifalari poetik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Maqolada poetikaning badiiy asarning ichki tuzilishini ochishdagi roli, mazmun va shakl birligini sharhlashdagi ahamiyati hamda nasrning estetik xususiyatlarini aniqlashdagi imkoniyatlari asoslanadi.

**Kalit so‘zlar:** poetika, nasr, adabiyotshunoslik, adabiyot nazariyasi, badiiy tahlil, obrazlar tizimi, syujet, kompozitsiya, estetik tahlil.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается концепция поэтики и её место в анализе прозы. Исследуется положение поэтики в литературоведении, её связь с литературной теорией, историей литературы, литературной критикой и методологией. Также, с поэтической точки зрения анализируются сюжет и композиция, система образов, речь автора и героя, соотношение времени и пространства, эстетические функции символов, мотивов и художественных деталей в прозаических произведениях. Статья фокусируется на роли поэтики в раскрытии внутренней структуры произведения искусства, её важности в интерпретации единства содержания и формы, а также на её возможностях в определении эстетических характеристик прозы.

**Ключевые слова:** поэтика, проза, литературная критика, теория литературы, художественный анализ, система образов, сюжет, композиция, эстетический анализ.

**Abstract.** This article examines the concept of poetics and its role in the analysis of prose. It discusses the position of poetics within literary studies, as well as its connection with literary theory, literary history, literary criticism, and methodology. In addition, the article analyzes, from a poetic perspective, the plot and composition, the system of characters, authorial and character speech, the relations of time and space, and the aesthetic functions of symbols, motifs, and artistic detail in prose works. The study also substantiates the role of poetics in revealing the inner structure of a literary work, interpreting the unity of content and form, and identifying the aesthetic features of prose.

**Keywords:** poetics, prose, literary studies, literary theory, artistic analysis, system of characters, plot and composition, aesthetic analysis.

“Poetika, adabiyotshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, adabiy asarlarning estetik, til va uslubiy jihatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Bu so‘z yunoncha “poiesis” (yaratish) so‘zidan olingan bo‘lib, asosan “san’at” yoki “yaratish san’ati” degan ma’noni anglatadi. Poetikani ko‘plab tavsiflar orqali tushuntirish mumkin: u adabiyotning shakli, mazmuni, stilistik xususiyatlari, uslub va janrlar

haqida tushunchalarni jamlaydi. Poetikani o‘rganish orqali adabiy asarlarning estetik qiymatini, uning qanday yaratilganini va qanday ma’no yuklanishini anglash mumkin. Poetika adabiyotshunoslikning eng muhim nazariy bo‘limlaridan biri bo‘lib, badiiy asarning ichki tuzilishi, ifoda usullari, estetik qonuniyatlari va badiiy tafakkur mexanizmlarini o‘rganadi.”[2.17]

“Poetika keng ma’noda adabiyot nazariyasi, tor va hozirda ko‘proq qo‘llanilayotgan ma’noda adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi, adabiy asar haqidagi ta’limot. Poetikani umuman adabiyot, so‘z san’ati haqidagi fan - adabiyot nazariyasi ma’nosida tushunish antik davrlardan an’anaga aylangan.”[3.233] Ilmga poetika tushunchasini kiritgan mutafakkir Aristotel bo‘lib, uning “Poetika” asari badiiy ijodni tahlil qilishda muhim nazariy manba hisoblanadi.

Nasr poetikasi tushunchasida prozaik asarlarning syujet-kompozitsion qurilishi, obrazlar tizimi, muallif nutqi va qahramon nutqining o‘zaro munosabati, zamon va makon kategoriyalari, badiiy tafsilot, ramz va motivlarning estetik vazifasi tushuniladi.

Nasr tahlilida poetika, avvalo, asarning asosan ichki badiiy mexanizmlarini ochishga xizmat qiladi. Bunda adabiy matn muayyan estetik maqsadga bo‘ysundirilgan murakkab badiiy tizim sifatida o‘rganiladi. Masalan, nasriy asarda syujetning uzviyligi yoki parchalanganligi, voqealarning izchil yoki fragmentar berilishi muallifning dunyoqarashi va estetik pozitsiyasi bilan bevosita bog‘liq holda tahlil qilinadi.

Poetika nasrda obraz yaratish jarayonini ham chuqurroq anglash imkonini beradi. Qahramon xarakteri harakatlar orqaliligi, ichki monolog, psixologik tasvir, nutq ohangi, tafsilotlar tanlovi orqali shakllanadi. Shu sabab nasr poetikasini tahlil qilishda psixologizm, lirizm, kinoyaviy ohang, subyektivlik darajasi kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa XX asr nasrida poetik tahlil yordamida an’anaviy realizm bilan modernistik ifoda usullari o‘rtasidagi farqlarni ko‘rish mumkin.

Shuningdek, poetika nasr tahlilida muallif obrazini aniqlashda muhim metodologik vosita hisoblanadi. Muallifning matndagi mavjudligi – bevosita izohlar, nutq uslubi, badiiy tanlovlar orqali bilvosita namoyon bo‘ladi. Bu holat, ayniqsa, falsafiy va psixologik yo‘nalishdagi nasriy asarlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Demakki, poetika nasr tahlilida asarning badiiy yaxlitligini, estetik qiymatini va ma’no qatlamlarini ochishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Poetika orqali nasriy asar faqat ijtimoiy yoki tarixiy hujjat sifatida emas, balki mustaqil estetik hodisa sifatida talqin etiladi. Shu sababli zamonaviy adabiyotshunoslikda nasrni ilmiy tahlil qilish jarayonida poetik yondashuv asosiy metodlardan biri sifatida qaraladi.



“Adabiy jarayon va badiiy adabiyot haqida fikr yurituvchi “Adabiyotshunoslik” shunday bir umumlashtiruvchi-jamlovchi istilohdirki, uning tarkibiga bir necha sohalar – maxsus fanlar kiradi. Adabiyotshunoslik tarkibiga “Adabiy tanqid”, “Adabiyot tarixi”, “Adabiyotshunoslik metodologiyasi”, “Adabiyot nazariyasi”, “Adabiy manbashunoslik”, “Adabiy matnshunoslik”, “Bibliografiya” kabi fanlar mansubdir. Shulardan: “Adabiy tanqid” adabiy jarayon haqida, “Adabiyot tarixi” badiiy adabiyotning tarixiy taraqqiyot yo‘li haqida, “Adabiyotshunoslik metodologiyasi” o‘tmish va hozirgi zamon adabiyotini o‘rganish tamoyillari va usullari haqida, “Adabiyot nazariyasi” badiiy adabiyot va ijodiy jarayon qonuniyatlari haqida bahs yuritish bilan shug‘ullanadi. Agar, ta’bir joiz bo‘lsa, adabiyotshunoslikning quyi bosqichi – “Adabiy tanqid”, o‘rta bosqichi – “Metodologiya” va “Adabiyot tarixi” va, nihoyat, yuqori bosqichi – “Adabiyot nazariyasi” deyish mumkin. Albatta, bu – shartli tasnif. Aslida bu predmetlar bir-biriga g‘oyatda jips bog‘liqdir: birini ikkinchisidan, ikkinchisini birinchisidan ustun qo‘yib bo‘lmaydi.”[1.10]. Ushbu tizim ichida poetika alohida metodologik mavqega ega bo‘lib, u badiiy asarning ichki estetik qurilishini o‘rganishga ixtisoslashgan markaziy bo‘lim sifatida namoyon bo‘ladi.

“Adabiyot nazariyasi badiiy so‘z asarlarining ijtimoiy hayotda o‘ynagan roli, badiiy adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlari haqida, badiiy ijodning turlari, badiiy asarning tuzilishi va ijod jarayonining qonuniyatlari haqidagi ta’limotdir. Adabiyot nazariyasi o‘tmish va hozirgi zamon tarixiy-adabiy jarayonining qonuniyatlarini o‘rganadi, adabiyotni to‘g‘ri tushunish va rivojlantirish uchun kerakli xulosalarni chiqaradi. Adabiyot nazariyasi adabiyotshunoslik sohalarining yutuqlari asosida yuzaga kelishi bilan birga, o‘z ilmiy xulosalari orqali adabiyot tarixini ham, adabiyot metodologiyasi va adabiy tanqidni ham boyitadi.”[4.22]. Adabiyot nazariyasi badiiy ijodning umumiy qonuniyatlarini, janrlar, obraz, syujet, kompozitsiya, uslub kabi kategoriyalarni ishlab chiqadi. U umumlashtiruvchi xarakterga ega bo‘lib, adabiy jarayonning tipologik xususiyatlarini belgilaydi. Poetika esa nazariyaning ushbu umumiy tushunchalarini konkret asar misolida tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Agar nazariya badiiy hodisaning umumiy modelini yaratsa, poetika shu modelning real matndagi ishlash mexanizmini ochadi. Shu jihatdan poetika nazariyaning amaliy-estetik qatlami sifatida ko‘riladi.

Adabiyot tarixi esa adabiy jarayonning davriy rivojlanishi, estetik oqimlar, maktablar va yo‘nalishlarning shakllanishini o‘rganadi. U asarni tarixiy kontekstda talqin qiladi, uning davr bilan aloqasini aniqlaydi. Poetika esa asarning ichki tuzilishini markazga qo‘yadi. Tarixiy yondashuv “asar qachon va qanday sharoitda yaratilgan?” degan savolga javob bersa, poetik yondashuv “asar qanday badiiy mexanizm asosida

qurilgan?” degan savolni qo‘yadi. Bu ikki yondashuv bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir-birini to‘ldiradi.

Adabiy tanqid esa asarni baholash, uning estetik va ijtimoiy ahamiyatini aniqlash bilan shug‘ullanadi. Tanqid ko‘pincha normativ yoki baholovchi xarakterga ega bo‘ladi. Poetika esa baholashdan ko‘ra, tahlilga ustuvorlik beradi. U asarning yaxshi yoki yomonligini emas, balki uning qanday qurilganini, badiiy unsurlar qanday o‘zaro aloqaga kirishganini aniqlaydi. Shu sabab poetika tanqiddan farqli ravishda, obyektiv-tahliliy metodga asoslanadi.

Adabiyotshunoslik metodologiyasi – adabiyotni o‘rganishning nazariy-uslubiy asoslari haqidagi ta’limot bo‘lsa, poetika – adabiy asarning ichki strukturaviy va estetik qurilish qonuniyatlari haqidagi ta’limotdir.

Poetikaning adabiyotshunoslik tizimidagi o‘rnini aniqlashda ijtimoiy va poetik yondashuv o‘rtasidagi farqni ham ko‘rsatish muhimdir. Ijtimoiy yondashuv asarni jamiyat, mafkura, tarixiy sharoit bilan bog‘liq holda talqin qiladi. Poetik yondashuv esa matnning ichki tuzilishi, obrazlar tizimi, kompozitsion qurilishi va til xususiyatlariga e’tibor qaratadi. Biroq haqiqiy ilmiy tahlil mazmun va shakl birligini ta’minlagan holda, bu ikki yondashuvni uyg‘unlashtiradi.

Mazmun va shakl birligi masalasi ham poetikaning markaziy kategoriyalaridan biridir. Badiiy asarda mazmun shaklsiz mavjud bo‘la olmaydi, shakl esa mazmunsiz estetik qiymat kasb etmaydi. Poetika aynan mana shu birlikni o‘rganadi. “Ilmiy asarlarda hayotning turli-tuman qirralari, asosan umumiy qonuniyatlarda, hukm va xulosalarda yuzaga chiqadi. Badiiy asarlarda esa mazmun va shakl birligi tufayli ko‘p qirrali borliq jonli holda alohida hodisalar va o‘ziga xos sifatlarning o‘zaro aloqador tarzda namoyon bo‘lishida ro‘yobga chiqadi. Badiiy asarlar kitobxon tasavvuriga kuchli ta’sir ko‘rsatish qudratiga ega. Bunday ta’sirchanlikka yozuvchilar aniq so‘zlar yordamida hosil etilgan obrazlar vositasida erishadilar, chunki bu obrazlar go‘yo sa’natkor g‘oyalarini nurlantirib, o‘quvchi ongida, qalbida nozik tuyg‘ular, o‘zgarishlar tug‘diradi. Badiiy adabiyot namunalarida mazmun va shakl o‘zaro munosabatda bo‘ladi, aloqador va nisbiy xususiyatga ega bo‘lgan tushunchalar hisoblanadi. Asardagi qandaydir unsurga nisbatan mazmun hisoblanuvchi narsa boshqalariga nisbatan shakl vazifasini o‘tashi mumkin.

Mazmun va shakl bir-biriga o‘tishi mumkin, obraz goyaga nisbatan shakl bo‘lsa, g‘oya hayotga nisbatan shakldir.”[5.42] Poetika g‘oyaning qanday badiiy shaklga aylanganini, obraz va syujet orqali qanday estetik ifoda topganini aniqlaydi. Shu bois poetika badiiy asarning ichki mexanizmini, uning estetik strukturasi ochuvchi asosiy nazariy vosita sifatida maydonga chiqadi.



Xulosa qilib aytganda, poetika adabiyotshunoslik tizimida muhim o‘rin tutadi. U nazariya, tarix va tanqidni bog‘lovchi estetik ko‘prik vazifasini bajaradi hamda badiiy asarni ichki qurilishi, shakl-mazmun birligi va obrazlar tizimi orqali ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, poetika adabiyotshunoslik tizimida markaziy nazariy bo‘lim sifatida namoyon bo‘ladi. U adabiyot nazariyasining umumiy qonuniyatlarini konkret badiiy mexanizmlar orqali aniqlashtiradi, adabiyot tarixining evolyutsion jarayonlarini shakliy o‘zgarishlar nuqtayi nazaridan izohlaydi hamda adabiy tanqidning baholash mezonlarini ichki struktura asosida mustahkamlaydi.

Poetikaning ustuvorligi aynan shundaki, u asarning ichki badiiy tuzilishi bilan bog‘liq holda talqin etadi. Mazmun va shakl birligi, kompozitsion qurilish, obrazlar tizimi, til va uslub kabi elementlar aynan poetik tahlil markaziga qo‘yiladi. Demak, poetika adabiy asarning “ichki mexanizmi”ni ochib beruvchi nazariy platforma vazifasini bajaradi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T.: O‘zbekiston. 2002
2. G‘aniyeva N. EYIB. Volume2 №3 | Mart 2025
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T.: Akadernashr, 2010
4. Sulon I. Adabiyot nazariyasi (Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari studentlari uchun darslik). T.: O‘qituvchi. 1980
5. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: O‘AJBNT Markazi. 2003